



BOBIL OSMON BOG‘LARI VA TABIAT ESTETIKASINING TASVIRIY SAN’ATDA IFODALANISHI

dots. Bobirjon Oripov

Namangan davlat pedagogika instituti,

“ART pedagogikasi” kafedraasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qadimgi Bobil shahridagi mashhur Osmon bog‘larining estetik mohiyati va ularning tasviriy san’atda ifodalanish masalalari tahlil etilgan. Tabiat go‘zalligi, insonning unga bo‘lgan munosabati, me‘moriy uyg‘unlik va badiiy obrazlar orqali yaratilgan muhit san’at asarlarida qanday aks etgani ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Bobil osmon bog‘lari, estetik tafakkur, tabiat go‘zalligi, tasviriy san’at, kompozitsiya, uyg‘unlik, qadimgi sivilizatsiya.

Annotation

This article analyzes the aesthetic essence of the famous Hanging Gardens of Babylon and their representation in visual arts. It explores how the beauty of nature, human attitude towards it, architectural harmony, and artistic imagery are reflected in artworks.

Keywords: Babylonian celestial gardens, aesthetic thinking, natural beauty, fine arts, composition, harmony, ancient civilization.

Аннотация

В данной статье анализируется эстетическая сущность знаменитых Висячих садов Вавилона и их отражение в изобразительном искусстве. Рассматривается, как красота природы, отношение человека к ней, архитектурная гармония и художественные образы проявляются в произведениях искусства.



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd November, 2025

Ключевые слова: вавилонские небесные сады, эстетическое мышление, природная красота, изобразительное искусство, композиция, гармония, древняя цивилизация.

Kirish

Insoniyat tarixida tabiat va san'at o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik doimo dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Tabiat insonning estetik didini shakllantirishda, go'zallikni his etishida muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan qadimiy Bobil osmon bog'lari nafaqat me'moriy mo'jiza, balki tabiat go'zalligini sun'iy tarzda tiklashga qaratilgan san'at namunasi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqolada Osmon bog'larining yaratilish sabablari, ularning badiiy-estetik talqini hamda zamonaviy tasviriy san'atda ifodalanish uslublari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Bobil osmon bog'lari qadimgi dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblanadi. Ular eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda Bobil shahrida, shoh Navuxodonosor II davrida qurilgan deb taxmin qilinadi. Tarixiy manbalarga ko'ra, bog'lar shohning xotini Amitis uchun qurilgan bo'lib, u tog'li hududlardan chiqqani sababli Bobilning issiq iqlimida o'z yurtining yashil tabiatini sog'ingan. Ushbu bog'lar ko'p pog'onali terassalar ko'rinishida bo'lib, har bir qavatda turli o'simliklar, daraxtlar va gullar o'sar edi. Bunday murakkab inshootni yaratish uchun ilg'or irrigatsiya tizimi, suv chiqarish mexanizmlari va muhandislik yondashuvlari qo'llangan. Osmon bog'lari insoniyat tarixida tabiat bilan uyg'unlikni ifoda etuvchi eng yirik estetik konsepsiyalardan biridir. Bu inshootda insonning sun'iy muhit orqali tabiat go'zalligini yaratishga bo'lgan intilishi ko'zga tashlanadi. Bog'larning estetik jozibasi, o'zaro uyg'unlik, rang va shakllarning muvofiqligi, suvning oqimi, daraxtlar soyasi – bularning barchasi inson ruhiyatiga go'zallik hissini singdiradi. San'at nazariyasiga ko'ra, bunday ob'ektlar insonni nafaqat hayratga soladi, balki tabiat bilan estetik muloqotga chorlaydi. Tasviriy san'atda tabiat estetikasi muhim o'rin tutadi. Rassomlar tabiatning uyg'unligi, harakat ritmi, ranglar jilosi orqali inson hissiyotlarini ifodalaydilar. Bobil osmon bog'lari tasviriy san'atda tabiat va inson ijodining birlashmasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu obraz ko'plab asarlarda



— miniatyuralar, devoriy rasmlar, grafika va haykaltaroshlikda aks etgan. Masalan, Yevropa Uygʻonish davrida rassomlar Osmon bogʻlarini ideal shahar timsoli sifatida tasvirlaganlar, bu orqali ular tabiat va meʼmoriy uygʻunlikni badiiy obrazga aylantirganlar.

Bugungi kunda ham Bobil osmon bogʻlari obrazi turli zamonaviy sanʼat shakllarida – rassomlik, dizayn, landshaft arxitekturasi va raqamli sanʼatda qoʻllanilmoqda. Rassomlar ekologik muammolar, tabiatni asrash gʻoyalari bilan bogʻlab, Osmon bogʻlarini yangi mazmun bilan talqin qilmoqdalar. Bu motiv bugungi kunda inson va tabiat oʻrtasidagi muvozanatni eslatadigan ramziy belgiga aylangan. Shuningdek, zamonaviy tasviriy sanʼatda Bobil bogʻlarining ilhomlantiruvchi obrazlari ekologik ong va estetik tafakkurni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

Xulosa

Bobil osmon bogʻlari insoniyat tarixida nafaqat meʼmoriy, balki badiiy-estetik hodisa sifatida muhim oʻrin egallaydi. U tabiat va inson ijodining uygʻunlashuvi orqali sanʼatning eng oliy gʻoyalardan birini – goʻzallikni yaratish orzusini aks ettiradi. Tasviriy sanʼatda bu bogʻlar obrazining turli davrlar davomida talqin qilinishi inson tafakkurining oʻzgarishi, tabiatga munosabat evolyutsiyasini ifodalaydi. Shunday qilib, Osmon bogʻlari tasviriy sanʼatda abadiy ilhom manbai, inson va tabiat oʻrtasidagi uygʻunlikning badiiy ramzi бўлиб қолади.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov, B. (2018). Qadimgi Sharq meʼmorchiligi tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Karimova, D. (2020). Sanʼat falsafasi va estetika. Namangan: NDPI nashriyoti.
3. Smith, J. (2015). Ancient Wonders and Art. Oxford University Press.
4. Rasulov, O. (2022). Tasviriy sanʼatda tabiat obrazining talqini. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. UNESCO World Heritage Centre. (2021). Cultural Landscapes and Aesthetic Values.